

FORISH TUMANI EKOTURIZMIDA MAHALLIY JAMOALARNING O'RNI VA TASIRI

Isayeva Nilufar Axror qizi

Samarqand turizm va madaniy

meros texnikumi o'qituvchisi

davronallamuratov2010@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda Jizzax viloyati Forish tumanida ekoturizmning rivojlanishi va uning mahalliy jamoalarga ta'siri tahlil qilingan. Xususan, ekoturizmning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ta'siri yoritilgan miqdoriy hamda sifat ko'rsatkichlarida tahlil etilgan. Ekoturizmning barqaror rivojlanishi mahalliy aholi uchun yaratadigan imkoniyatlari batafsil keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ekoturizm, mahalliy jamoalar, resurs, barqaror rivojlanish.

Bugungi kunda turizmning yangi yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib borayotgan ekoturizm atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va mahalliy aholining iqtisodiy farovonligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, turli hududlarda, jumladan, Jizzax viloyatining tabiiy va madaniy boyliklarga boy Forish tumanida ham ushbu turizm sohasi jadal rivojlanmoqda.

Forish tumani o'zining noyob tabiati, qadimiy ziyoratgohlari, boy milliy urf-odatlar va hunarmandchiligi bilan ekoturizmni yo'lga qo'yish uchun katta salohiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu jarayonda mahalliy jamoalarning ishtiroki va ularga ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy aholi ekoturistik faoliyatda bevosita ishtirok etar ekan, ular nafaqat iqtisodiy foyda ko'radi, balki o'zlarining madaniy merosini asrash, tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lish orqali hududning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur tezisda Forish tumanida ekoturizmni rivojlantirish jarayonida mahalliy jamoalarning tutgan o'rni va ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi, shuningdek, ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritiladi. Ushbu tadqiqotda Forish tumanida ekoturizmning rivojlanishi va mahalliy jamoalarning ushbu jarayondagi o'rni hamda ta'sirini o'rganish asosiy maqsad qilib olindi. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy tahlil usullari uyg'unligida, real faktlar va mavjud statistik ko'rsatkichlarga asoslangan yondashuv qo'llanildi. Uslubiy asos sifatida mintaqaviy tahlil, hujjatlar tahlili, joylarda kuzatuv va SWOT tahlili metodlari tanlandi.

Birinchidan, joylarda kuzatuv usuli orqali Forish tumanidagi ekoturizm salohiyatiga ega hududlarda – xususan, Porasht maskani Uxum, Hoyat va boshqa tabiiy-madaniy ob’ektlarda mahalliy jamoalarning ishtirok darajasi, mehmonlarga xizmat ko’rsatish sifati, tabiiy muhitning holati va mavjud infratuzilmaning ahvoli o’rganildi.[1] Bu jarayonda e’tibor asosan mahalliy aholining ekoturistik faoliyatga qanchalik jalb etilganiga, ularning bilim va ko’nikmalariga, shuningdek, ekologik ong darajasiga qaratildi.

Ikkinchidan, huquqiy-hujjatlar tahlili usuli orqali ekoturizmga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, hukumat qarorlari va boshqa rasmiy manbalar o’rganildi. Bu orqali ekoturizmni rivojlantirishda davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari va mahalliy jamoalarning undagi o’rni aniqlashtirildi. Jumladan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi, “2022–2026 yillarda turizmni rivojlantirish strategiyasi” va Jizzax viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlaridagi tegishli bandlar tahlil qilindi[2].

Uchinchidan, ikkinlamchi manbalar – ya’ni ilmiy maqolalar, statistik hisobotlar, diplom ishlari, xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston bo‘yicha e’lon qilgan ekoturizmga oid hisobotlari va ommaviy axborot vositalaridagi tahliliy materiallar asosida qo‘shimcha tahlillar amalga oshirildi. Bular orqali Forish tumanidagi ekoturizm infratuzilmasi, tashrif buyuruvchilar soni, daromad manbalari, hamda mahalliy aholining bandligi kabi omillar bo‘yicha aniq tasavvur hosil qilindi. Shuningdek, SWOT tahlili orqali Forish tumanida ekoturizmni rivojlantirishda mahalliy jamoalarning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar va ehtimoliy tahdidlar aniqlab chiqildi. Bu yondashuv kelgusidagi tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Yuqoridagi uslublar asosida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari Forish tumanida ekoturizm va mahalliy jamoalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish, ularning o‘zaro ta’sir darajasini baholash va ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun zaruriy ilmiy asoslarni yaratishga xizmat qildi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari Forish tumanida ekoturizm sohasining tabiiy va madaniy resurslarga asoslangan holda shakllanayotganini ko’rsatdi. Tuman o‘zining tarixiy ziyoratgohlari, qadimiy an’analari, hunarmandchiligi va tabiiy landshaftlari bilan O‘zbekistonning ekoturizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlaridan biri hisoblanadi[3]. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mahalliy jamoalar bu jarayonning ajralmas ishtirokchilari sifatida turli yo’nalishlarda faoliyat yuritmoqda. Jumladan, ularning asosiy ishtirok shakllari quyidagilardan iborat:

- mahalliy aholining qo‘llanma (gidlik) xizmatlarida ishtiroki;
- mehmon uylari (homestay) orqali turistik xizmatlar ko’rsatishi;
- mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;

- ekoturizmga xizmat qiluvchi kichik biznes (kafe, do'kon, savdo rastalari) faoliyatini yuritishi.

Forish tumanida joylashgan Birlashgan majmuasi, Qoratosh maskani, Novqa ota ziyoratgohi va boshqa tabiiy-madaniy manzillar nafaqat mahalliy, balki xorijiy sayyohlarni ham jalb qilmoqda. Shu boisdan, turizm sohasi orqali mahalliy aholining bandligi oshmoqda, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda[4]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aholining turizmga bo'lgan qiziqishi va faolligi tobora ortib bormoqda, ayniqsa, yoshlar va ayollar ekoturizm yo'nalishida faol ishtirok etmoqda. Bu holat Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO)ning ekoturizmni barqaror rivojlantirishdagi tavsiyalariga (UNWTO, 2019) mos keladi. UNWTO ta'kidlashicha, ekoturizmning muvaffaqiyati mahalliy aholining jalb etilish darajasi va ularning manfaatdorligiga bog'liq[5].

Biroq, Forish tumanida ekoturizmning rivojlanishida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan:

- Infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan – turizm maskanlariga olib boruvchi yo'llar, transport, sanitariya-gigiyena sharoitlari, axborot belgilarining yetishmasligi sayyohlar uchun noqulaylik tug'dirmoqda.
- Mahalliy aholi malakasining pastligi – turistik xizmat ko'rsatish, xorijiy tillarni bilish, ekoturistik standartlar bo'yicha ko'nikmalar yetarli emas.
- Atrof-muhitga ta'sirni nazorat qilish mexanizmlari zaif – sayyohlar oqimi ortgan sari tabiiy resurslarning degradatsiyasi ehtimoli ortmoqda.

Bu muammolar xalqaro tajriba bilan qiyoslaganda ham dolzarb hisoblanadi. Masalan, Janubiy Osiyodagi Nepal va Hindiston kabi mamlakatlarda ham ekoturizmning rivojlanishida mahalliy jamoalarning ishtiroki muhim rol o'ynaydi, ammo infratuzilma va ta'lim muammolari bu jarayonni sekinlashtiradi[6] (Honey, 2008).

Tadqiqotda I. U. Abdullayev va Z. K. O'razaliyeva tomonidan yozilgan "Ekoturizm va mahalliy jamoalar: o'zaro bog'liqlik" nomli maqoladan foydalanildi. Ular o'z ishlarida mahalliy aholi ishtirokisiz ekoturizm barqaror bo'la olmasligini ilmiy asoslar bilan izohlaydi. Ularning fikricha, turizm orqali daromad olish imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirdagina mahalliy aholi tabiatni asrashda faol bo'ladi[7] (Abdullayev & O'razaliyeva, 2021).

Shuningdek, X. T. Jo'rayevning "O'zbekiston hududlarida ekoturizm rivoji va muammolari" nomli ishida Forish tumanidagi imkoniyatlar alohida ta'kidlanadi. Unga ko'ra, bu hududda ekoturizmni rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy, balki madaniy tiklanish ham yuzaga keladi[8] (Jo'rayev, 2022).

Tadqiqot davomida o'tkazilgan SWOT tahlili metodidan quyidagi muhim ma'lumotlarni olishimiz hamda bu asosda ba'zi masalalarga to'xtalib o'tishimiz

mumkin bo'лади. Quyida Forish tumani uchun o'tkazilgan tahlil natijalari taqdim etilmoqda. Olingan natijalarga ko'ra tahlilni boyitib boorish imkoniyati mavjud.

Kuchli tomonlar	Tabiiy resurslar boyligi, tarixiy yodgorliklar, an'anaviy hunarmandchilik.
Zaif tomonlar	Infratuzilma va xizmat sifati pastligi, ta'lim va malakaning yetishmasligi.
Imkoniyatlar	Davlat dasturlari, turizmga oid sarmoyalarni jalb qilish, yoshlarni jalb etish.
Tahdidlar	Ekologik muvozanatning buzilishi, tartibga solinmagan sayyohlar oqimi, mahalliy manfaatlar e'tibordan chetda qolishi.

1-jadval SWOT tahlili

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: Mahalliy aholini ekoturizm sohasiga tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini yo'lga qo'yish; Mahalliy jamoalarni turistik qarorlarni qabul qilish jarayoniga jalb etish; Ekologik ongni oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan jamoaviy loyihalarni qo'llab-quvvatlash; Hududiy infratuzilmani rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish. Umuman olganda, Forish tumanida ekoturizmni rivojlantirish jarayoni hali boshlang'ich bosqichda bo'lsa-da, uning istiqbollari yuqori. Bunda mahalliy jamoalarning faolligi va hamkorligi eng asosiy omil sifatida qaralishi zarur.[10] Mazkur tadqiqot orqali olingan natijalar va mavjud ilmiy manbalarga tayanilgan holda shuni aytish mumkinki, ekoturizm mahalliy rivojlanishning barqaror modeliga aylanishi mumkin, agar u aholining manfaatlari va ekologik muvozanatni hisobga olgan holda tashkil etilsa.

Xulosa.

Forish tumanida ekoturizmning rivojlanishi tabiiy va madaniy resurslarga asoslangan bo'lib, mahalliy jamoalarning ushbu jarayondagi ishtiroki hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining ekoturistik faoliyatga jalb qilinishi ularning iqtisodiy farovonligiga ijobiy ta'sir etmoqda. Mahalliy gidlik, mehmon uylari, hunarmandchilik va kichik savdo faoliyati orqali aholining daromad manbalari kengaymoqda, ayni paytda bu holat ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlamoqda.

Shu bilan birga, mavjud muammolar – infratuzilmaning zaifligi, malakali kadrlar yetishmasligi, ekologik nazorat mexanizmlarining sustligi – ekoturizmning to'laqonli rivojiga to'sqinlik qilmoqda. Mahalliy jamoalarni faol jalb etish, ularni o'qitish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali bu muammolarni kamaytirish mumkin. Xalqaro tajriba va ilmiy adabiyotlar asosida shuni aytish mumkinki, ekoturizm mahalliy rivojlanishning barqaror modeliga aylanishi uchun jamoalar nafaqat xizmat ko'rsatuvchi sifatida, balki qarorlar qabul qiluvchi va tabiiy

muhitni boshqaruvchi subyekt sifatida ham qatnashishi lozim. Forish tumanida mavjud tabiiy va madaniy imkoniyatlardan oqilona foydalanish, aholining ekologik ongini oshirish va turizm infratuzilmasini zamonaviylashtirish orqali bu hudud O‘zbekiston ekoturizmi markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев И.У., Оразалиева З.К. Экотуризм ва маҳаллий жамоалар: ўзаро боғлиқлик. – Т.: «Илим зиёси», 2021. – 128 б.
2. Жўраев Х.Т. Ўзбекистон ҳудудларида экотуризм ривож ва муаммолари. // Туризмда инновациялар. – 2022. – №2. – Б. 35–40.
3. Мамарасулов Ш.Э. Туризм ва рекреация географияси. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2020. – 256 б.
4. UNWTO. Guidelines for the Development of Ecotourism. World Tourism Organization, Madrid, 2019. – 65 p.
5. Honey, M. Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise? – Washington, DC: Island Press, 2008. – 459 p.
6. Rustamov M., Karimova S. Ekoturizm: mohiyati va rivojlanish istiqbollari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №5. – В. 73–78.
7. Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси. 2022–2026 йилларга мўлжалланган туризмни ривожлантириш стратегияси. – Тошкент, 2022. – 84 б.
8. Юнусова З.Н. Экологик туризм ва уни ривожлантиришда жамоатчилик иштироки. // Экология ва ҳаёт. – 2021. – №6. – Б. 22–26.
9. Салимов А. Экотуризмнинг иқтисодий ва ижтимоий аҳамияти. // Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро муносабатлар. – 2022. – №4. – Б. 44–48.
10. Sharipov O., Saidova D. Sustainable tourism development in Uzbekistan: case of Forish district. // Journal of Tourism Research. – 2022. – Vol. 14(3). – P. 112–118.